

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

PRINCIPLES OF SOCIAL JUSTICE IN EASTERN PHILOSOPHY: THE CASE OF AL-FARABI'S PHILOSOPHICAL HERITAGE

Aripova Zulfiya

Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor

Andijan State Technical Institute

Department of Languages and Humanitarian Sciences

Abstract. This article explores the principles of social justice in Eastern philosophy through the philosophical legacy of al-Farabi. His works, such as *The Virtuous City* and *Political Regime*, emphasize the concepts of the perfect human, the just ruler, and ultimate happiness. Using philosophical-legal, historical, and comparative approaches, the study analyzes al-Farabi's ideas in relation to Western philosophy and other Eastern thinkers. It demonstrates that his vision of integrating reason and justice remains relevant for modern theories of social justice and continues to serve as a foundation for stability and moral development in society.

Keywords: Eastern philosophy, al-Farabi, social justice, virtuous city, perfect human, happiness.

SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA

Aripova Zulfiyaxon Solijonovna,

Falsafa fanlar nomzodi dotsent

Andijon davlat texnika instituti

“Tillar va gumanitar fanlar” kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq falsafasida ijtimoiy adolat tamoyillari Forobiyning falsafiy merosi misolida tahlil etiladi. Mutafakkirning “Fozil shahar”, “Siyosat al-madaniya” kabi asarlarida ilgari surilgan komil inson, odil hukmdor va baxt-saodat g'oyalari falsafiy-huquqiy hamda tarixiy yondashuvlar asosida izohlanadi. Tadqiqotda Forobiyning qarashlari G'arb falsafasi va boshqa Sharq mutafakkirlari merosi bilan qiyoslanib, ularning zamonaviy ijtimoiy adolat nazariyalari uchun dolzarbligi ko'rsatiladi. Xususan, Forobiyning aql va adolatni uyg'unlashtirgan g'oyalari bugungi jamiyat taraqqiyotida barqarorlik va ma'naviyat omili sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Sharq falsafasi, Forobiy, ijtimoiy adolat, fozil shahar, komil inson, baxt-saodat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N34>

Kirish. Sharq falsafasi insoniyat tafakkuri tarixida eng muhim ma'naviy-ma'rifiy meroslardan biridir. Uning asosiy xususiyati hayotiy haqiqatlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham izohlashga intilishidadir. Sharq mutafakkirlari tafakkurida ijtimoiy adolat, komil inson g'oyasi, davlat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik masalalari alohida o'rin egallaydi. Bu jarayonda Forobiy (873–950) kabi yirik allomalarning ta'limotlari alohida qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Forobiy musulmon Sharqida Arastudan keyin “Ikkinchi ustoz” unvoniga sazovor bo'lgan ulug' mutafakkirdir[1]. Uning 160 dan ortiq asarlari qadimgi yunon faylasuflari merosini sharhlash, tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolarni tahlil qilish, shuningdek, ijtimoiy adolat va komil inson haqidagi g'oyalarni asoslashga bag'ishlangan. Mutafakkir borliqni “vujudi

vojib” — ya’ni Olloh, va “vujudi mumkin” — barcha moddiy va ruhiy mavjudotlar misolida tushuntiradi. Uningcha, barcha mavjud narsalar sabab va oqibat tamoyillari asosida bir-biriga bog’langan bo’lib, sababsiz oqibat bo’lmaganidek, oqibatsiz sabab ham mavjud bo’lishi mumkin emas. Shu tariqa Forobiy falsafiy qarashlarida sababiyat, imkoniyat va zaruriyat masalalari markaziy o’rin tutadi.

Forobiyning ijtimoiy adolat haqidagi qarashlari uning komil inson va fozil jamiyat konsepsiyasi bilan chambarchas bog’liq. Allomaning ta’limotida fozil shahar odil hukmdor boshqaruvida barpo etiladi, bu jamiyatda esa axloqiy va aqliy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Uning nazarida aql — ilm va adolatning poydevori bo’lib, shariatni chuqur anglash ham aynan aql vositasida amalga oshadi. Shunday ekan, Forobiy axloq va falsafani bir-biridan ajratmagan, balki ularni ijtimoiy hayot barqarorligi va farovonligining asosiy omillari sifatida ko’rsatgan[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda Sharq falsafasi, xususan, Forobiy merosida ijtimoiy adolat masalasini tahlil etishda falsafiy-huquqiy, tarixiy va qiyosiy metodlar qo’llanildi. Falsafiy-huquqiy metod yordamida Forobiy asarlarida adolat tushunchasining mohiyati, uning axloqiy, huquqiy va ijtimoiy asoslari tahlil qilindi. Tarixiy metod orqali mutafakkirning qarashlari shakllangan davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy va madaniy sharoitlari o’rganildi. Bu yondashuv Forobiyning adolat haqidagi qarashlari o’z zamonasida qanday ahamiyat kasb etganini ko’rsatishga imkon berdi. Qiyosiy metod asosida esa Forobiy qarashlari G’arb falsafasi va boshqa Sharq mutafakkirlari – Ibn Sino, G’azzoliy va keyingi davr allomalari ta’limotlari bilan solishtirildi. Bu uslub falsafiy g’oyalarni umumiylik va xususiylik jihatidan aniqlash hamda ularning zamonaviy ijtimoiy adolat konsepsiyalariga ta’sirini ochib berishga yordam berdi[3].

Shuningdek, tahliliy-sintetik metoddan foydalanib, Forobiyning “Fozil shahar ahlining qarashlari”, “Siyosat al-madaniya” kabi asarlarida ilgari surilgan g’oyalar falsafiy mazmun jihatidan tizimlashtirildi, ularning zamonaviy jamiyat uchun dolzarbligi aniqlab berildi. Tadqiqot davomida kontent-tahlil usuli ham qo’llanilib, mutafakkir asarlarida adolat tushunchasiga oid asosiy kategoriyalar, tushunchalar va ularning qo’llanish doirasi ajratib olindi. Natijada, Forobiy merosidagi ijtimoiy adolat tamoyillari nafaqat tarixiy, balki zamonaviy falsafiy tafakkur rivojida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslab berildi.

Muhokama. Forobiyning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo’lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolarni sharhlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag’ishlangan. Mutafakkir olamni ikki ko’rinishda: “vujudga vojib” (olloh) va “vujudi mumkin” (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar “vujudi vojib” tufayli yashash huquqiga ega bo’ladi. Ular o’zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog’lanadi. Sababsiz oqibat bo’lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo’lmaydi, deydi Forobiy. Olam sifat, miqdor, substansiya — javhar, aksidensiya-oraz (muhim bo’lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ular fazoviy jismlar, aqlli maxluq (inson), aqlsiz jonivorlar, o’simliklar, minerallar va to’rtga unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi oltita ko’rinishda namoyon bo’ladi. Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali yuzaga keladi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib beriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Mutafakkir o’z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat,

unga erishish yo'llari, davlatning xususiyatlari, axloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to'g'risida ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Forobiyning Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri rivojiga bo'lgan ta'siri sezilarli bo'lgan. Forobiyning fikricha, borliq xudodir va faqat ugina mohiyatlarga vujud bag'ishlaydi. Forobiy falsafa tarixida birinchi bo'lib mavjudotlarni ikki qismga: aqliy vujudga va mohiyatga, mohiyatlarni esa to'qqiz javhar va oraz (aksidensiya)ga bo'ladi[4]. Forobiy aytganidek, haq xudodir va haqiqatning boshqa ma'nolari uning asarlarida xuddi shu ma'noda qo'llaniladi. Zero, barcha mavjudotlar ilmi ilohiyda mavjud bo'lib, nimaiki ilohiy qazoda bor bo'lgan bo'lsa, qadar darajasiga tushib qolgan, deydi xuddi shuningdek, haqni azaliy, deganda, alloma aynan mana shu ma'noga asosiy e'tiborni qaratadi. Bunga qo'shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, sababiyat ham uning asarlarida boshqacha ko'rinish va talqinga ega bo'lib, ko'proq faollik ma'nosini kasb etadi. Forobiy fikricha, bilishning quroli: nutq, tasavvur va hisdan iborat. Narsalar to'g'risidagi bilim nutq quvvati orqali, tasavvur va his-tuyg'u vositasida hosil bo'ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko'rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha'nidir. Nutq vositasida kelib chiqqan ilm o'z e'tibori bilan his-tuyg'u uyg'otuvchi ishlarni bayon etadi. Demak, ilm hissiy quvvat natijasida kelib chiqadi. Ilm mavzusining tasavvurga taalluqligi, tasavvur esa o'z navbatida orzu tug'dirishi va his-tuyg'uga boshqacha tasavvurlarning kirib kelishi nutq quvvatining hosilalaridir.

Natijalar. Shunga binoan tasavvuriy ma'rifatning mavzusi eng yuqori zotlarning vujud bosqichlaridan tortib to mavjud bo'lmagan yolg'on narsalarni ham o'z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan avvaldan vujudga kelgan narsalar ikki xil:

1) his-tuyg'u bilan bilinadigan narsalar;

2) isbot va dalil orqali bilinadigan narsalar. Tasavvuriy ma'rifat borliqdagi barcha mavjudotlarga taalluqli bo'lganligidan tasavvur orqali hosil qilingan ilm ham xuddi dalil va isbot vositasida hosil qilingan mavjudotlar kabi bilib olinishi, ya'ni his-tuyg'u uyg'otadigan bilimlarni ham tasavvuriy ma'rifat jumlasidan deb hisoblash mumkin. Vahiy agarchi hamma narsa to'g'risidagi mavhum ma'rifat bo'lib, moddadan ajratilgan bo'lsa ham, ilohiy ilmlar jumlasidan hisoblanadi. Vahiy – mavjud ashyolarning qandayligidan qat'iy nazar ularning qaysilari foydali va qaysilari zararli ekanligini aniqlashdir. Vahiy ilohiy ilhomdir. Faol aqlning ruh fazosiga qo'ygan birinchi qadami tushdir. Ammo tasavvuriy quvvatning o'z nihoyasiga etishi tushda ko'rgan voqea va hodisalar bilan chegaralanmaydi. Faol aql uyqu vaqtida tasavvurga kirganidek, bedorlikda ham o'z holatini saqlaydi. Faol aql fayzining mahsuli "ko'rish"dir, ya'ni nutq quvvati nimaniki dalil asosida "qabul qilsa", tasavvuriy quvvat uni "ko'radi". Tasavvuriy quvvat nutq quvvatining "o'rinbosaridir". Aql va tasavvur faol aql fayzi vositasida shahar raisiga sof va xolis, shu bilan birga ajoyib ma'rifat majmuasini taqdim etadiki, u bu orqali osmoniy belgilarni ko'radi va tushuna oladi. Natijada Fozil shahar raisi bu ko'rganlarini erga tushirib, shahar hayotiga tatbiq etishga kirishadi[5].

1. Nazariy aql shunday kuchki, unga qiyos ham, isyon ham va xato ham aralasha olmaydi. Bu aqliy ilmlarning asosiy tushunchasi, zaruriy xulosalar majmuasi va ma'rifat sarchashmasidir. Insonning nazariy aqli tufayli barcha mavjudotlar haqidagi bilimlar mavzusi bo'lgan nazariy ilm kelib chiqadiki, uning tayanchi sun'iy ravishda emasligi ma'lum bo'ladi. Bu ilm ayon bo'lishi bilan birga aqliy kuch haqiqiy amalga aylanadi. Nazariy aql insonga va uning to'la faoliyatiga xos bo'lgan narsa bo'lib, ruhning badandan ajralgandagi shunday holatidirki, ruh o'zining yashashi, tayanishi va faoliyati uchun moddaga boshqa muhtoj bo'lmay qoladi. Shuningdek, u his-tuyg'u va tasavvurdan ham beniyoz bo'lib, ularsiz ham "birinchi ibtido"ning

zotini tushunishga erishadi. Ya'ni, fozil shaharning birinchi raisi qiyos, misol va o'zining jismoniy kuchining aralashisiz ham, xudovandu taborak va taoloni xolis ravishda tasavvur va "mushohada" qila olishi mumkin. Forobiyning fikricha, aql shariatning tayanchi va madadkori bo'lib, mohiyatan u bilan birdir. Shariatni yaxshi tushunish uchun aql ishlatish zarur. Bir tomonlama aql ishlatishni to'xtatib qo'yish dinning rostgo'ylikka undovchi mohiyatini tushunishga g'ov bo'lib, riyokor va nizo chiqaruvchi odamlar domiga tushib qolishi va qavmning o'zinigina chegaralangan rasm-rusumlari va odatlari asoratiga mutelikni keltirib chiqaradi

2. Forobiyning boshqaruvni sharti sifatida falsafaga murojaat qilishining asli mohiyati shundaki, falsafa aql va dalillar bilan ish ko'radi. Aql va dalil bilan ish ko'rish esa, ayrim millat va ummatgagina xos bo'lgan narsa bo'lmay, jahonshumul ahamiyatga egadir. Agar diniy e'tiqodlar bilangina ish ko'riladigan bo'lsa, unda ma'lum va mashhur narsalarga xitob qilish va ulardan qoniqish bilangina ish tutishga to'g'ri keladiki, unda muayyan asr, shaxs va makon aks etadi, xolos. Ammo aqliy dalillarga tayanilsa, yuqoridagi chegaralanishlarga hojat qolmaydi. Aql o'z-o'zicha shunday qoidalarga egadirki, hamma joyda va har qanday zamonda qo'llansa bo'laveradi

3. Abu Nasr Forobiyning axloq nazariyasiga qadimgi yunon mutafakkirlari sezilarli ta'sir o'tkazganlar. Forobiy yunon mutafakkirlarining jamiyat va ijtimoiy axloq to'g'risidagi ta'limotlarini islomiy nuqtai nazardan qayta ishlagan. Forobiy fikricha, inson olti bosqichda yaratilgan vujudlarning eng pastki bosqichida bo'lsa ham, tug'ma qobiliyati va quvvati bilan faol aql yordamida o'zini baland martabali mumtoz vujudga aylantira oladi. U mavjudotlar silsilasi bosqichlaridagi shunday yagona bir jinsdirki, uni o'z kuchiga ko'ra harakatdagi borliq deyish mumkin. Baxt-saodat bunday yuksak "ko'tarilish", ya'ni mumtozlik tarkibiga kirmaydi[6].

1. Baxt-saodat tushunchasi "faol aqlga eng yaqin turgan narsadir" va uning ma'no-mohiyati faol aql bilan qo'shiluvida yashiringandir

2. Baxt-saodat faol aqlning eng yaqin bosqichiga shiddat bilan etishishdir

3. Baxt-saodat inson ruhining shunday kamolot vujudiga erishishidirki, bu joyda ruh uchun moddiy tayanchga ehtiyoj qolmaydi. Bunday martabada har qanday jismdan tashkil topgan ashyolar ham o'z moddiy o'zagidan ajralib, undan abadiy mahrum holda, doimiy qoladilar. Bunday martabali joy faol aql maskani bo'lib, unga faqat irodali faoliyat orqaligina erishiladi. Baxt-saodat o'z mohiyatiga ko'ra, shunday xayrli va matlub narsadirki, inson undan boshqa yoqimliroq va ulug'vorroq narsani qo'lga kiritishi mumkin emas. Ammo, har qanday holat va bosqichda ham inson ruhiyati avj nuqtasi va faoliyatining nihoyasi uning tug'ma vujudidagi quvvatga bog'liqdir. Forobiy fikricha, baxt-saodat xayrli ishning o'zginasi bo'lib, har bir inson erishishi mumkin bo'lgan maqsadlarning eng ulug'idir. U o'zining "Kitob al-siyosat al-madaniya" asarida baxt-saodatni faqat nazariy tafakkurga ega bo'lgan quvvat egasigina idrok eta oladigan aqliy kamolot turi, deb hisoblaydiki, zero, baxt tushunchasi, aqliy tafakkur orqaligina ma'lum bo'lib, uning afzalligini hech bir lazizroq va jismoniy ehtiyojga xos narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. Boshqacha ta'bir bilan aytganda, Forobiyning nuqtai nazaricha, mohiyatan baxt-saodat aqliy idrokka aloqador bo'lib, gapiruvchi quvvat jihatidan aqliy amalga bog'liqdir va shu bois unga faqat aql yordamida erishish mumkin. Fozil shahar ahli orasida uning yuqori vakolatli hokimi "baxt-saodatda eng yetuk" bo'lib, ayni vaqtda "moddaning zarra va energiyasidan judo bo'lgan holda faol aqlga yaqindir". (Forobiyning bunday ifodasi Qur'on oyatlari va islomiy madaniyatdagi taqvo va zuhdga chaqirish kabi tashviqotlarga muvofiq

keladi). Fazilat ruh lazzatining sababidir. “Sen bundan g’aflatda eding va biz sening qarshingdagi pardani ko’tardik va sening ko’rar ko’zing ushbu kunda katta ochildi” [8]. Forobiy bu erda dalil sifatida Qur’onning “Qof” surasining 23-oyatini keltirmoqda. U aytmoqchiki, tan hijobi insonni ruh lazzati va ilohiy nurni mushohada qilishdan mahrum etmoqda, ya’ni dunyoviy narsalarga aloqadorlik ruh qarshisida parda bo’lib kelmoqda. Inson aqlining zaifligi va uning moddiy va nomoddiy narsalar bilan qorishiligi, uni borliqning avvali “eng yetuk jamol” Tangri visolidan mahrum etmoqda.

Xulosa. Abu Nasr Forobiy musulmon Sharqi falsafiy tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida nafaqat o’z davrida, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayotga beqiyos ta’sir ko’rsatgan allomadir. Uning falsafiy qarashlari orqali biz Sharqdagi mantiq, metafizika, axloq, siyosat, bilish nazariyasi va ijtimoiy adolat masalalarining qanchalik yuksak darajada ishlab chiqilganini ko’ramiz. Forobiy o’z qarashlarida olamni “vujudi vojib” va “vujudi mumkin” asosida talqin qilib, mavjudotlarning sababiy bog’liqligi hamda ularning o’zaro uyg’unligini chuqur tahlil etgan. Bu bilan u Sharq falsafasida ilmiy-metafizik tafakkurni yangi bosqichga ko’tardi.

Forobiyning nazariy aql, tasavvuriy quvvat va bilish jarayonlari haqidagi qarashlari inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini ochib berdi. Unga ko’ra, aql – ilm va haqiqatni anglashning yagona quroli, shariatni to’g’ri tushunishning asosi va insonni kamolot sari yetaklovchi kuchdir. Shuningdek, u nutq, tasavvur va hislarni bilishning asosiy vositalari sifatida talqin qilib, insonning idrok jarayonlarini mantiqiy asosda tushuntirdi. Bu yondashuv keyingi davr musulmon mutafakkirlari uchun ham nazariy tayanch bo’lib xizmat qildi.

Forobiy axloqiy va siyosiy ta’limotlarida komil inson, fozil jamiyat va adolatli hukmdor masalalarini o’rtaga qo’ydi. Uning “Fozil shahar” haqidagi g’oyalari jamiyatning ma’naviy-axloqiy yuksalishi, ilm va adolat ustuvorligi orqali baxt-saodatga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Alloma uchun baxt-saodat – inson ruhining eng oliy kamolot bosqichiga yetishi, ya’ni faol aql bilan uyg’unlashishdir. Bu esa insonning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hayotdagi maqsadlari bilan ham chambarchas bog’liqdir.

Shuningdek, Forobiyning yunon falsafasi, xususan Aristotel merosini chuqur o’rganib, uni sharhlash orqali Sharq va G’arb tafakkuri o’rtasida mustahkam ilmiy ko’prik yaratganini ham alohida qayd etish kerak. U qadimgi yunonlarning nazariy bilimlarini islomiy dunyoqarash bilan uyg’unlashtirgan holda, falsafaning o’ziga xos mantiqiy va tizimli maktabini shakllantirdi. Shu jihatdan uning qarashlari Markaziy Osiyo va butun musulmon Sharqida ilm-fan taraqqiyotining intellektual asoslarini yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy o’z asarlari orqali Sharq falsafasining nafaqat nazariy, balki amaliy yo’nalishlarini ham belgilab berdi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan bo’lib, insoniyatni aql, adolat va ma’naviyat orqali haqiqiy baxt-saodat sari chorlaydi. Forobiy falsafasini o’rganish Sharq tafakkurining yuksak bosqichlarini, ilm va ma’rifatga asoslangan jamiyat barpo etish haqidagi ulug’vor orzularini chuqur anglash imkonini beradi. Shu bois, uni nafaqat o’tmish allomasi, balki bugungi kunimiz va kelajagimiz uchun ham yo’l ko’rsatuvchi ma’naviy ustoz sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mo’minov I. M., O’zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. T., 1999;
2. O’zbekistonda ijtimoiyfalsafiy fikrlar tarixidan, T., 1995;

3. Xayrullayev M. M., Abu Nasr Forobiy, T., 1966;
4. Xayrullayev M. M., O'rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;
5. Sultonmurod P. Abu nasr farobiyning falsafiy qarashlari va uning ilmiy ahamiyati //Innovation in the modern education system. – 2024. – T. 5. – №. 46. – C. 84-87.
6. Boybuva og M. M. et al. Sharq renessans ijtimoiy falsafiy tahlil //izlanuvchi. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 426-431.
7. Begzod Toshpo'lot o'g H. et al. Abu nasr forobiyning ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishdagi mulohazalari //Prospects and main trends in modern science. – 2025. – T. 2. – №. 22. – C. 188-193.
8. Risolat B. Farobiy: falsafaning sharqdagi yuksalishi va ilmiy yondashuvlar //Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 35-40.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).